

## FUNKTSIONAL MAHSULOTLAR GURUHI

### NIPPON PAINT PROJECTURA — MAXSUS PROEKSIYA UCHUN BO‘YOQ

#### MAHSULOT TAVSIFI

Nippon Paint Projectura — suv asosidagi, akril sopolimer emulsiyasi asosida ishlab chiqarilgan, mat teksturali funksional ichki bo‘yoqdir. U proyektor orqali uzatilgan tasvirni aks ettirib, sirtni proeksiya ekrani kabi ishlashini ta‘minlaydi. Oddiy yuzalardan farqli ravishda yorug‘likni tarqatmaydi va ko‘z qulay diqqat jamlay oladigan tasvir hosil qiladi.

Maxsus rangi va tarkibi tufayli yorug‘likning haddan tashqari yorqin qismini yutadi va uzoq vaqt tomosha qilishda ko‘z charchashini kamaytiradi. Yuqori darajada bug‘ o‘tkazuvchan. Yorilmaydi, pufaklanmaydi va ko‘chib tushmaydi, asos bilan yaxshi uyg‘unlashadi. Yuqori yopuvchanlik va ishqalanishga chidamlilikka ega. Qo‘llash vaqtida bezovta qiluvchi hid chiqarmaydi. Silliq va tekis ko‘rinish hosil qiladi.

#### QO‘LLANILADIGAN YUZALAR

Nippon Paint Projectura ni satin suvoq, shpaklyovka, grunt bilan ishlov berilgan yuzalar; yangi va tekis ichki yuzalar, devorlar va shiftlar; rangi o‘chgan eski bo‘yalgan ichki yuzalarda yakuniy qatlam sifatida qo‘llash mumkin.

#### QO‘LLASH

Bo‘yoq surtishdan oldin sirt tekis, mustahkam, quruq, toza va bo‘yoqni ko‘tara oladigan bo‘lishi kerak. Yog‘, kir, chang va bo‘sh qatlamlarni olib tashlang, zarur tuzatishlarni bajaring, mos grunt bilan gruntnab, so‘ng bo‘yoqni surting. Qo‘llash vaqtida muhit va sirt harorati **+5°C dan +30°C gacha** bo‘lishi lozim. Cho‘tka, valik yoki purkagich yordamida qo‘llang.

Birinchi marta bo‘yaladigan yangi ichki suvoqli yuzalarga **Nippon Paint Interior Transition Primer** yoki **Nippon Paint Interior Paste Primer** surting. Shaffof grunt ishlatilganda sirtga singmasligi sababli shishasimon qatlam hosil bo‘lishi mumkin, bu esa ustki qatlamning yopishmasligi va yetarli qalinlik hosil qilmasligiga olib keladi.

Yuqori singdiruvchan va changlanishi kuchli eski suvoqli yuzalarda (masalan, satin suvoq) **Nippon Paint Interior Transparent Primer** ni bir qatlam qilib, taramasdan va sayqallamasdan qo‘llang. Pigmentli grunt ishlatilsa, yopishish muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Avval bo‘yalgan yuzalarda (suv asosidagi, silikon modifikatsiyalangan yoki erituvchi asosidagi bo‘yoqlar) gruntnashdan oldin yuzani yengil silliqlash zarur. Aks holda yopishish muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Shaffof gruntni (masalan, **Nippon Paint Interior Transparent Primer**) qo‘pol, mashinali va satin suvoq yuzalarda ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga muvofiq, bir marotaba valik bilan surtib chiqing. Pigmentli gruntnlar oraliq qatlam sifatida ishlatiladi, yakuniy bo‘yoq esa valik yoki cho‘tka bilan **ikki qatlam**, havosiz purkashda esa **bir qatlam** qilib surtiladi.

Ohakli yuzalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llamang. Ohak qatlamini metall cho‘tka yoki mexanik usul bilan imkon qadar tozalang, changni olib tashlang va **Nippon Paint Transparent Primer** ni bir qatlam qilib surting. Bunday yuzalarda pigmentli grunt ishlatilsa, yopishish muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Mahsulotlarimiz **30.06.2007 yildagi 26568-sonli Umumiy qurilish standartlari** ga muvofiq tayyorlangan asosiy yuzalarga qo'llanilishi lozim.

## HAVOSIZ PURKASH:

Bosim: 120–140 bar

Soplo burchagi: 50°

Soplo o'lchami: 0,019"

Suyultirish: 10%

## SUYULTIRISH

Cho'tka va valik bilan qo'llashda toza suv bilan 15–20% gacha suyultirib, ikki qatlam qilib surtish tavsiya etiladi.

## QURISH VAQTI (20°C harorat va 65% nisbiy namlikda)

Tegib ko'rishda qurishi: 30–60 daqiqa

Qatlamlar orasida kutish: 4–6 soat

To'liq qurish vaqti: 24 soat

(namlik oshganda va harorat pasayganda qurish vaqti uzayishi mumkin)

## ESLATMA:

Ikkinchi qatlamni 4 soatdan oldin surtmang. Maksimal yopuvchanlik gruntlash va kutish vaqtiga rioya qilinganda ta'minlanadi. To'liq quriguncha yuzalar sovuqdan himoyalaniishi kerak.

## SARFI

Sirt turiga, singdirish qobiliyatiga va tuzilishiga qarab, **1 litr** bo'yoq bir qatlamda **12–16 m<sup>2</sup>** maydonni qoplaydi.

Aniq sarfni aniqlash uchun sinov surtmasi bajarilishi lozim.

## SAQLASH

Mahsulot ochilmagan qadoqda, quruq va salqin joyda, sovuq va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoyalangan holda **3 yilgacha** saqlanishi mumkin. Ishlatilgandan so'ng idishni havo o'tkazmaydigan qilib mahkam yoping.

## TASNIF

Hajmi: 1,25 l

Yaltiroqlik: G3 sinf

Donadorlik: S1 sinf

Yopuvchanlik: 1-sinf (7 m<sup>2</sup>/l)

Nam ishqalanishga chidamlilik: 2-sinf



TS 5808/2012 ga mos keladi



TSE

G bayonotiga mos keladi

Ushbu texnik varaq normal sharoitlarda laboratoriya ma'lumotlari asosida tayyorlangan. Yuqorida ko'rsatilmagan tafsilotlar uchun texnik xodimlarga murojaat qiling. Aks holda, ishlab chiqaruvchi kompaniya bilim yetishmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklar uchun javobgar bo'lmaydi. Kompaniyamiz ushbu ma'lumotni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Zarur bo'lganda, mahsulotlar bilan bog'liq sog'liq, xavfsizlik va qayta ishlash xavflari hamda ehtiyot choralari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun Materiallar xavfsizligi ma'lumotlari varaqlariga qarang.

**Ushbu mahsulot Betek A.Ş. tomonidan TS EN ISO 9001, TS EN ISO 14001, TS 18001, TS EN ISO 50001, TS ISO 10002 standartlariga muvofiqlik sertifikatini bilan ishlab chiqarilgan.**